

## RAHMATULLA BARAKAYEV HANGOMALARI

Ergash Ochilov

### I

Hamma yaxshi ko‘rgan va hurmat qilgan kishida bir xislat bo‘ladi.

Rahmatulla Barakayevning 70 yillik yubileyi munosabati bilan tashkil qilingan telegramm kanali orqali u kishini butun O‘zbekiston ahli tabarruk yoshi bilan muborakbod etyapti. Kanalni kuzatib borish jarayonida shunday xulosaga keldimki, u kishi butun o‘zbek ilmiy jamoatchiligining hurmat-ehtiromini qozongan ekan.

“Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q” deyishadi. Ko‘p yillar davomida birga ishlab, har kuni ko‘rishib yurganimiz uchunmi, ko‘p qatori oddiy odam deb bilganimiz bu kishining butun mamlakatda, hatto chet ellarda ham talay do‘stlari va muxlislari bor ekanligini bilmagan ekanmiz. Ochig‘i, telegramm kanal ochganida hamma tomondan tabriklar bunaqa oqib kelishini kamtar yubilyarning o‘zi ham kutmagan bo‘lsa kerak.

Yusufbek hoji Kumushni qarshilab:

– Bizning Marg‘ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurgan ekanmiz-da! – deb lutf etganiday, biz ham oldimizda shunday ulug‘ bir daryo shovullab oqib yotganini ana shu telegramm kanal orqali qayta kashf etganday bo‘ldik.

### II

“Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar”, – deb yozgan edi xalqimizning suyukli adibi Abdulla Qodiriy. Shundan kelib chiqib, kamina ham bunday orqamga qayrilib qarasam, Rahmatulla Barakayevni taniganimga ham 35 yil bo‘lib qolibdi. Mustaqil izlanuvchi sifatida hujjatlarni rasmiylashtirish va nomzodlik dissertatsiyasi mavzusini tasdiqlatish maqsadida Til va adabiyot institutiga qatnab yurgan 1989-yilda ilmiy rahbarim Sultonmurod Olim orqali u kishining yaqin do‘stlari qatori Rahmatulla aka bilan ham tanishganman.

Agar bu qadrdonlik tarixini Rahmatulla akaning nomini eshitgan paytimdan boshlasam, naq 40 yilga yetadi.

Gap shundaki, ToshDU (hozirgi O‘zMU)ning jurnalistika fakultetida tahsil olib yurgan paytimda 1984-yili Til va adabiyot instituti ilmiy xodimi bo‘lib ishlayotgan Sultonmurod Olim bilan tanishganman. Bu tanishuv keyinchalik ustoz-shogirdlikka aylanib, hozirgacha davom etib kelyapti. O‘zaro muloqotlarda ustozning tilidan Zuhridin, Rahmatullo, Nusratullo kabi do‘stlari nomi sira tushmasdi va ana shu suhbatlar orqali bu kishilarga nisbatan menda g‘oyibona muhabbat paydo bo‘lgan.

1990-yilda Til va adabiyot instituti ikki mustaqil – Tilshunoslik va Adabiyot institutlariga ajraldi. 1992-yilning 3-fevralidan men Adabiyot institutida ish

boshlagach, o‘zim ixlos qo‘ygan bu insonlar bilan hamkasb sifatida birga faoliyat ko‘rsata boshladim.

Bu pirlar nazari tekkan muqaddas ilmiy dargohda Zuhridin Isomiddinov, Rahmatulla Barakayev, Abduvahob Madvaliyev, Mamatqul Jo‘rayevlar menga ham ustoz, ham do‘st, ham ulfat, ham sirdosh bo‘lishdi. Bu akalarim butun hayotim davomida hamdam va hamkor bo‘lib, ulardan nafaqat ilmiy faoliyatimda, balki shaxsiy hayotimda ham maslahatlar olib kelyapman.

### III

Olis qishloqdan kelib, poytaxtda o‘rnashib ketishning o‘zi bo‘lmaydi. Ayni jihatdan Toshkentda yashayotgan viloyatliklar ranju mashaqqatlarga to‘la og‘ir hayot yo‘lini bosib o‘tib pishgan kishilar hisoblanadi.

Odatda, odamlar birovlardan ko‘rgan yomonliklarini gapirib charchamaydilaru yaxshiliklari haqida lom-mim deb og‘iz ochgilari kelmaydi – go‘yo hamma narsaga o‘zlari erishganlar.

Taqdiringga ta’sirchi qiluvchi kishilar bo‘ladi. Albatta, bu ta’sir kimda kimda ijobiy, kimda salbiy bo‘lishi mumkin. Ya’ni kimdir hayotingning izdan chiqib ketishiga sabab bo‘lsa, kimdir hayotda o‘z o‘rningni topib olishingga vosita bo‘ladi.

Rahmatulla aka ana shunday mening taqdirimda yorqin iz qoldirgan ajoyib insonlardan biri bo‘ladi. Ta’bir joiz bo‘lsa, men u kishini tutingan aka sifatida ko‘rib, ilmiy masalalarda ham, hayotiy masalalarda ham hamisha maslahat va yo‘l-yo‘riqlar olib turaman.

Aytib o‘tganimday, Rahmatulla aka bilan ustozim Sultonmurod Olim bahona hali bu ilmiy dargohga kelmay turib tanishganman. U kishining bolalar adabiyoti bo‘yicha mutaxassisligini bilib, bolalarga bag‘ishlangan she’rlarimni ko‘rsatib, maslahatlar olganman.

Bu bag‘rikeng va mehridaryo inson birovdan nafaqat maslahati, madadini ham ayamaydi.

Adabiyot instituti alohida institut sifatida ajralib chiqqan o‘sha paytlarda Rahmatulla aka institut Kasaba uyushmasining raisi ham edi, chamamda. Biror tadbir munosabati bilan birovga sovg‘a-salom qilish uchun ham imkon bo‘lmay, bu muammo kimgadir moddiy yordam yozish yo‘li bilan hal qilinardi. Natijada ko‘pincha mening nomimga ortig‘i bilan moddiy yordam yozilar va uning bir qismi ilmda endigina tetapoya qadamlarini tashlayotgan, ijarada yashaydigan kaminaday yosh olimga o‘ziga xos moddiy madad bo‘lar edi.

Men tabiatan o‘qish-yozishga ko‘proq moyilman. Shuning uchun ham dars berishni sira xohlamaganman. Lekin ko‘pchilik Fanlar akademiyasi olimlari qo‘shimcha ravishda shug‘ullanadigan bu kasbdan men ham qochib

qutulolmaganman. Mana, yigirma yildan buyon tashqi o‘rindosh sifatida Sharqshunoslik universiteti talaba va magistrilariga tarjima nazariyasi va amaliyoti fanlaridan ders berib kelaman.

Men Sharqshunoslik universitetiga aynan Rahmatulla akaning tavsiyasi va qistovi bilan borganman.

– Men bilganlarimni takrorlash bilan vaqtimni zoye qilmoqchi emasman. – deb noz qilganimda:

– Bolalaringiz bo‘y yetib kelyapti – ularning kelajagiga poyandoz solishni ham o‘ylang, – deb holi-jonimga qo‘ymay ko‘ndirgan.

Ko‘pni ko‘rgan kishilarda bir hikmat bo‘ladi-da o‘zi: shu bahona ikki o‘g‘lim avval Sharqshunoslik instituti huzuridagi litseyda, keyin institutning o‘zida tahsil oldi.

#### IV

Odamlar bilan murosa-madorada yashashdan qiyini yo‘q. Rahmatulla aka yigirma yildan ziyod institutning ilmiy kotibi bo‘lib ishlaganida kattaning ham, kichikning ham ko‘nglini birday topa oldi.

Rahmatulla aka Adabiyot instituti ilmiy kotibligida uyoq-buyoqqa ketib qolsa, o‘rniga meni qoldirib ketar edi.

Demak, menga ishonch bildirgan.

Ayni paytda bu kishini faqat mehribon, muloyim, ko‘ngilchan degan sifatlar bilan ko‘kka ko‘tarib maqtayversak ham haqiqatdan ko‘z yumib, xushomad qilayotganday bo‘lamiz. Chunki u kishi o‘rni kelganda talabchan, qattiqqo‘l, yaxshi muomalaga ko‘nmaganda esa haqiqatni yuzingga shartta aytishdan ham qaytmaydi.

So‘zimning isboti sifatida o‘zim bilan bog‘liq bir misolni keltiray. 1995-yili men fan nomzodi diplomini olishim bilan ko‘p o‘tmay katta ilmiy xodim lavozimiga o‘tkazishdi va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Prezidiumi Tarix, til va adabiyot fanlari bo‘limi ilmiy kotibligiga tavsiya qilishdi. Rasmiy lavozimlar va har turli tashkiliy ishlar ilmu ijoddan qoldirishi jihatidan men bu taklifni qabul qilmay yurdim. Institut direktori To‘ra Mirzayev bilan ilmiy kotib Rahmatulla Barakayev bu nufuzli lavozim begonaga o‘tib ketmay, uni o‘zimizning biror ishonchli odam egallashishini istashardi.

Bir kuni odatdagiday bemalol ishga kelayotsam, oldimdan Rahmatulla aka chiqib qolib:

– Nima qarorga keldingiz – Prezidiumga ishga o‘tadigan bo‘ldingizmi? – deb so‘radi.

– Ha, yo‘q, tinchgina ilmiy ishlarimni qilib yurganim ma’qul, – deyishimni bilaman, shartta bor gapni yuzimga soldi:

– Biz sizni faqat shu maqsadda muddatidan oldin katta ilmiy xodimlikka o‘tkazgan edik – bo‘lmasa bu lavozimga yetolmay yurganlar qancha!

Bizning terimiz yupqa – gap ko‘tarolmaymiz. Shu bir og‘iz gap sabab bo‘lib o‘sha kuniyoq Fanlar akademiyasi Prezidiumiga ishga o‘tib ketdim.

Endi o‘sha kunlarni minnatdorchilik bilan eslayman. Bu yuksak lavozimda men avvalo qat‘iy ish tartibiga ko‘nikma hosil qildim; vaqtning har lazasini qadrlashni o‘rgandim; mamlakatning yetakchi olimlari bilan tanishib, birga ishlab, katta hayot maktabini o‘tadim. Bu qisqa muddatli faoliyatimning ijobiy samarasini butun hayotim davomida his qilib yashayapman.

O‘shanda Rahmatulla akadan biroz xafa bo‘lgan bo‘lsam, keyinchalik bu majburiy tanlov ham mening foydamga xizmat qilganini anglab yetdim.

## V

Biz Rahmatulla aka bilan shunchalik ko‘p osh-qatiq bo‘lganmizki, bu do‘stlik tarixini birma-bir varaqlasa, kamida ming sahifalik salmoqli bir kitob bo‘ladi. Shuning uchun bu yerda o‘zaro munosabatlarimizdagi eng muhim nuqtalarni qalamga olib, qolganini ustozning 100-yillik yubileyiga niyat qilib qo‘ydim.

Xudo o‘sha qutlug‘ kunlarga yetkazsa, bitta bo‘rdoqi qo‘yga qo‘shib, kamida 100 betlik bitta jonon risola bizdan!

## VI

Rahmatulla aka bilan hamkasb, hamkor, do‘st, ulfat sifatida o‘tgan yillar mobaynida ko‘plab davralarda o‘tirib turdik, birga ilmiy safarlarga bordik.

Ko‘pincha uch kishi – Rahmatulla aka, Mamatqul aka va kamina hamsafar bo‘lganimizdan kuygan ba‘zilar hatto bizga:

– Svoloch troyka! (“La’nati uchlik!”) – degan sifatni ham yopishtirishgan.

Ushbu ko‘p yillik hamkorlik mahsuli sifatida yondaftaringa tushib qolgan hangomalardan ba’zi birlarini u kishining 70 yillik yubileylari bahona hamkasblar bilan baham ko‘rmoqchi bo‘ldim.

### Ko‘zoynak

Sayfiddin Rafiddinov Til va adabiyot institutiga ishga kirishi bilan paxtaga jo‘natib yuborishibdi. Bechora faqat Rahmatulla Barakayevni tanib ulgurgan ekan. Boqijon To‘xliyev bilan yonma-yon egatga tushib, rosa gurung beribdi:

– Rahmatulla aka, bizning Qashqadaryoda bunday...

– Rahmatulla aka, bizning Qashqadaryoda unday...

– Rahmatulla aka...

Toqati toq bo‘lgan suhbatdoshi oxiri o‘zini tutib turolmabdi:

– Sizing Qashqadaryoda qanday bilmadim-u, bizning Toshkentda har bir ko‘zoynak taqqan Rahmatulla Barakayev emas!

E’tiboringiz uchun men Boqijon To‘xliyevman!

### **To‘rttagina bola**

Rahmatullo aka bir gadoyga sadaqa berib, duo qilishini so‘rabdi.

– Nechta bolang bor? – debdi gadoy.

– To‘rtta! – debdi u kishi ko‘kragiga urib.

– Unday dema, – debdi gadoy, – to‘rttagina deb ayt.

### **Madaniyat**

Samarqandlik taniqli adabiyotshunos Saydulla Mirzayevning o‘g‘li otasining 70 yillik yubileyiga taklif etib, yangi chiqqan kitoblaridan tarqatdi.

– E, barakalla! Otangizning ruhlari shod bo‘ladigan bo‘libdi! – dedi Rahmatulla Barakayev uni maqtab.

O‘g‘il bechora “Tirik odamni nega o‘lganga chiqarayapsiz?” – deyishga iymajib, keyingi kelishida o‘sha kitobga otasidan dastxat yozdirib kelibdi.

### **Shart**

– Yana o‘g‘il nabiralik bo‘ldim. Otini Sa‘dullo qo‘ymoqchi bo‘lsam, kelin Fayzullo qo‘yaylik dedi. Mayli dedim, – dedi Rahmatulla aka.

– Unda keyingi gal yana bitta o‘g‘il tug‘ib berasiz, – otini Sa‘dulla qo‘yamiz, deb qarzdor qilib qo‘ymadingizmi? – dedim hazillashib.

– Yaxshi gap bo‘ldi – yetkazib qo‘yaman, – dedi u kishi kulib.

### **“Restoran”**

Rahmatulla Barakayev barcha ma‘rakalarini Qo‘yliqqa boradigan yo‘ldagi “Gulsanam” kafesida o‘tkazar edi. Bir kuni uning yonidan o‘tib ketayotsak, To‘ra Mirzayev shunga ishora qilib hazillashdi:

– Mana Rahmatulloning restorani!

### **Savob**

Rahmatulla Barakayev 50 yillik yubileyini shaharda katta tantana bilan nishonlamoqchi edi. Keyin fikridan qaytdi. Qishloqqa borib, hayit bahonasida otanasiga atab xudoyi beribdi.

– Mana bu xayrli ish bo‘libdi, – dedim. – Savobga qolibsiz...

### **Zulukshunoslar**

Ibrohim Haqqul, Rahmatulla Barakayev, Mamatqul Jo‘rayev, Shomirza Turdimovlarning biri qo‘yib, biri zuluk haqida ta‘rif berayotganini eshitib hazillashdim:

- Men sizlarni adabiyotshunos desam, zulukshunos ekansizlar-ku!

### **Sabzito‘g‘rar**

Rahmatulla Barakayev qizini uzatayotgan Boqijon To‘xliyevga:

- Sabzito‘g‘rar degan narsalar ham bo‘ladimi? – desa:
- Oshga nima bosiladi? – debdi hozirjavoblik bilan.

### **Hayot kurashdan iborat**

- Ba‘zi rahbarlarning dastidan institutni tashlay ketsammi deb turibman, – desam, Rahmatulla Barakayev:
- Kurashib yashayvering – hayot kurashdan iborat, – dedi.

### **Tekin ishlar**

Rahmatulla Barakayev xonamizga bir ruscha avtoreferatni ko‘tarib kirdi.

- Tarjima qilishga talabgor bormi?
- Tekingami? – so‘radim.
- Nega endi? Puli naqd.
- Afsus... Tekinga bo‘lsa, men tarjima qilardim.
- Tushunmadim? – dedi u kishi hayron bo‘lib.
- Tushuntirib berishim mumkin: menga ish olib kelganlar shunaqangi yalinib-yolvorishadi, shunaqangi va‘dalar berishadiki, qanday qilib rozi bo‘lganimni bilmay qolaman. Ishlari bitgandan keyin esa quruq rahmat bilan cho‘ntagimni to‘ldirib, hisob-kitobni nasiya qilib ketishadi. Shuning uchun tahrir yoki tarjima desa, titroqqa tushaman.
- Oldindan kelishib olmaysizmi?
- Men kutgandan ham ortiqcha narxni aytib, og‘zimni yopishadi-da.

### **Oshdan maqsad diydor**

- Biz osh bahona aslida do‘stlar bilan diydor ko‘rishgani va suhbatlashgani boramiz, – deydi Rahmatulla Barakayev.

### **Gul savdosi**

Suyima G‘aniyevaning tug‘ilgan kuniga borayotganimizda gulni savdolashdim-da, Rahmatullo akaga:

- Qani, pulini to‘lang! – dedim.
- O‘zingiz-chi? – dedi u kishi hayron bo‘lib.
- Menda til bor, pul emas!

### Osh

Jasur Ziyamuhamedov o‘g‘lining aqiqasida osh berdi. Oshning guruchidan go‘шти ko‘p.

- Bu oshga go‘шти bilan oling emas, guruchidan ham oling deyish kerak ekan,
- dedi shunga ishora qilib Rahmatulla aka.

### Ehson

Rahmatulla aka aytadi:

– Ro‘za tutmagan kishi bir kunda yigirma besh ming so‘m ehson qilishi kerak ekan. O‘ylab-o‘ylab shuni qizimga yubormoqchi bo‘ldim. Bechora to‘rtta bolasi bilan uyda o‘tiribdi. Bitta kuyovning o‘zi ishlaydi. Lekin shunga ham birdaniga emas, har hafta ikki yuz ellik so‘mdan yuboraman. Har holda, bir haftasiga yetib turadi.

### Shoirlar qiyosi

– Tursunboy Adashboyev Anvar Obidjondan ko‘ra baland shoir, – deydi Rahmatulla Barakayev.

Ibrohim Haqqul bu fikrga qo‘shilmadi.

Tursunboy akada badiiyat, samimiyat, fikr va tuyg‘ularning tabiiy oqimi kuchli, Anvar akada esa fikr aytish va majoziylik ustun.

### Ustoz-shogirdlar

Rahmatulla Barakayev bir maqolasini ko‘tarib kirdi.

- Shuni o‘qib, tahrir qilib bersangiz.
- Ie, biz tahrirni o‘zingizdan o‘rganganmiz-ku, – dedim lutf ko‘rsatib.
- Lekin siz hozir tahrirda hammadan o‘tib ketdingiz. avval sizga ustozlik qilgan bo‘lsak, endi shogird bo‘lishga tayyormiz, – dedi u kishi ham maqtovga maqtov bilan javob qaytarib.

### Hayot haqiqati

- Hozirgi fan doktorlarini ko‘rib, kishining doktor bo‘lgisi ham kelmay qoldi,
- desam, Rahmatulla aka:
  - Qaytanga biz doktor bo‘lib, bo‘sh ishlarga yo‘l bermasligimiz kerak edi, – dedi.

### **Indamay ishini qilgan yutadi**

– Bu kimsaning muttasil hujumlariga qanday javob qaytaray? – deb bir raqibimdan shikoyat qilsam, Abduvahob Madvaliyev ham, Rahmatulla Barakayev ham kulgancha:

– Uni endi ko‘rayapsizmi? Indamay ishingizni davom ettiravering, – deyishdi.

### **Buyuklar muhokama qilinmaydi**

Rauf Parfining ishqiy sarguzashtlari, oilaviy mojarolari, bolalari xususida bahslashayotgan edik, Rahmatulla Barakayev gapimizni bo‘ldi:

– Shuni bilinglarki, hammasiga qaramay, Rauf Parfi – buyuk shoir. Buyuklar hayoti esa muhokama qilinmaydi.

### **Maosh kuni**

Rahmatulla Barakayev aytadi:

– Bu olimlarning barchasi insofu diyonatdan lof uradi. Lekin institutda faqat maosh beriladigan kuni qorasini ko‘rsatadi.

Xo‘sh, ayt-chi, ularning olayotgan oyligi oilasiga qanchalik halol?

### **Gapni bo‘lish**

Gapini bo‘lib qo‘yishsa-da, yana kelgan joyidan davom ettirib ketaveradigan ikki kishini ko‘rdim: biri – Muhammadjon Imomnazarov, biri – Rahmatulla Barakayev.

### **Kayfiyat quli**

Adabiyot institutida ishlaganida Barnobek oylab ishga bormagan. Oxiri ilmiy kotib Rahmatulla Barakayev uyiga qidirib borgan.

– Nega ishga bormayapsan? – desa:

– Shu... kayfiyatim yo‘q... – debdi beparvo.

Olti oyda pattasini qo‘liga tutqazishdi.

### **Yo‘lovchi**

Rahmatulla akaning oshidan chiqqach, do‘stimiz Ixtiyor mashinasiga taklif qildi.

– Ha, mayli, markazdan yurar ekansiz-ku, tug‘ruqxonaning oldida meni tashlab, uyog‘iga yengil bo‘lib ketaverasiz, – deb hamroh bo‘ldim.



### **Kartoshka-piyoz**

– Qishga deb bir qop kartoshka bilan bir qop piyoz oldim, – desam, Rahmatulla aka bilan Mamatqul aka kuldi:

– Qo‘ysangiz-chi! Bunaqa narsalarni qishloqdan bizga mashinalab yuborishadi – butun qishga yetib, hatto ortib ham qoladi.

### **Tajriba so‘zi**

– Xotin zoti bir narsani xohladimi, har qanday yo‘l bilan istagini amalga oshiradi – unga qarshilik qilish behuda, – degan edi birda Rahmatulla Barakayev jahl bilan qo‘l siltab.

### **“Hammualif”**

Naim Karimov “Shunday katta maqolani bir kishi yozganiga odamlar ishonmaydi”, - deb Rahmatulla Barakayevning “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”ga yozgan “Bolalar adabiyoti” maqolasiga Kavsar Turdiyevani hammualif qilib qo‘ygan ekan.

O‘roqda yo‘q, mashoqda yo‘q olimaning o‘ziga hammualif bo‘lib qolganidan Rahmatulla aka qattiq xafa bo‘l edi.

### **Har kimning ta’bi**

– Tursunboy Adashboyev latifa va askiyani qotirardi. Hammaning ichagi uzilib kular, Anvar Obidjon esa tishining oqini ham ko‘rsatmas edi, – deydi, Rahmatulla Barakayev.

### **Savil qolgan niyat**

– Men bolalarga bag‘ishlab bir nechta ertaklar ham yozganman. Ular alohida-alohida kitoblar ham bo‘lib chiqqan. Endi shularni to‘plab, bitta kitob qilmoqchiman. Shunga so‘zboshi yozib berasizmi? – degan ekan umrining oxirida Usmon Qo‘chqor Rahmatulla Barakayevga.

– Jonim bilan, – degan ekan u kishi, lekin shoirning kutilmagan o‘limi bilan bu ezgu niyat amalga oshmay qoldi.

### **Ehtiyot shart**

– Siz mashinani yaxshi haydolmaysiz. Siz bilan faqat jonidan to‘ygan kishi uzoq safarga chiqishi mumkin, - deydi kulib Rahmatulla aka Zuhridin akaga.

### **Yo‘nalishlar**

Meni Adabiyot nazariyasi bo‘limiga o‘tishga da’vat qilganlardan biri Rahmatulla Barakayev edi.

– Qiynalib zamonaviy adabiyot va adabiyot nazariyasiga moslashayapman, – desam:

– Bu – sizning foydangizga-ku, – dedi.

– Ha, ilon po‘st tashlagan kabi yangilanyapman, – dedim sir bermay. – O‘zi tarjimashunos edim, mumtoz adabiyot mutaxassisi bo‘ldim, navoiyshunos bo‘ldim, tasavvufshunos bo‘ldim, endi zamonaviy adabiyot bilan ham bir shug‘ullanib ko‘ray, nazariyotchi olim bo‘lay...

### **Kitob javonlari**

Abdulahob Madvaliyev ham, Rahmatulla Barakayev ham kitob javonlarini yangilashayotgan ekan. Buni eshitib hazillashdim:

– Hech kim kitob bilan qiziqmay qo‘yganda sizlar kitob javoni qurishga tushib ketdinglarmi?

### **Har ishning o‘z og‘iri**

Mening faoliyatimni ko‘pchilik to‘plovchilikdangina iborat deb bilar va g‘iybatimni qilib yurardi. Yuz jildlik “O‘zbek adabiyoti xazinasidan” turkumi uchun bolalar shoirlarining asarlarini to‘plab va tanlab bir necha jild tayyorlagan Rahmatulla Barakayev:

– Men sizning mumtoz shoirlar asarlarini nashrga tayyorlashdagi mehnat va mashaqqatlaringizni endi tasavvur qildim – bu ish faqat aytishga oson ekan, – degan edi.

### **Tuproq tortadi**

– Biz asli chaqarlikmiz. Qum ko‘chkilari tufayli o‘tgan asr boshlarida Vobkent tomonlarga ketib qolganmiz, – deydi Rahmatulla Barakayev. – Shuning uchun men bolalarimga o‘zimni Chaqarga – bobolarim yurtiga ko‘mishlarini vasiyat qilganman.

Qahramon Rajabov ham gapdan gap chiqib, mening:

– Toshkent bizga ikkinchi vatan bo‘ldi – butun umr uning non-tuzini yedik. Balki bu zamin o‘zimizni ham bag‘riga olar... – deganimga javoban:

– Ha, yo‘q, men o‘zimni qishloqqa – otamning yonlariga ko‘mishlarini ukamga tayinlab qo‘yganman, – dedi.

### **Taskin**

Men Toshkentda qiynalib yashagan paytlarimda:

– Uch o‘g‘limni qanday qilib o‘qitamanu qanday qilib uyli-joyli qilaman? – deb ko‘p g‘am chekar edim.

Shunday paytlarda Rahmatulla aka hamisha:

– Hali o‘g‘illaringiz ulg‘ayib, qanotingiz ostiga kirishadi va bu qiyinchiliklaringiz esingizdan chiqib ketadi, – deb ko‘nglimni ko‘tarar edi.

Chindan ham shunday bo‘ldi.

### **Ko‘cha hayvoni**

– Erkak – ko‘cha hayvoni, – deydi doim Rahmatulla aka.

Chindan ham, oila tebratish, ro‘zg‘orini but qilish uchun erkakning umri ko‘chada o‘tadi.

O‘z-o‘zidan bolalar tarbiyasining asosiy yuki ona zimmasiga tushadi.

Bola tarbiyasida onaning muhim o‘rin tutishi shundan.